



Taqiqot.uz



АНДУМАН | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
ДЕКАБР
№47



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
1-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-1**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-1**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

1. Daminova Nigora O’rinboyevna

VOYAGA YETMAGANLARNI JINOIY JAVOBGARLIKKA TORTISH VA ULARGA JAZO
TAYINLASH XUSUSIYATLARI.....7

2. Yusupova Ug'iljan Baxtiyarovna

JAMIYAT HUQUQIY TARTIBOTI ASOSI SIFATIDA – KONSTITUTSIYA VA QONUN
USTUVORLIGI.....9



ХУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЙЎНАЛИШИ

VOYAGA YETMAGANLARNI JINOIY JAVOBGARLIKKA TORTISH VA ULARGA JAZO TAYINLASH XUSUSIYATLARI

Daminova Nigora O'rino boyevna
O'zbekiston Respublikasi
IIV Akademiyasi Magistraturasi,
2-darajadagi tashkiliy - taktik
boshqaruvi mutaxassisligi tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar jinoyatlari va ularni javobgarlikka tortish masalalari haqida mulohaza yuritilgan, shuningdek Jinoyat kodeksining qator moddalari bilan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: jazo, voyaga yetmagan, jinoyat kodeksi, huquq, javobgarlik, modda.

«Bola, u jismoniy va aqliy jihatdan kamolatga yetmaganligi tufayli, maxsus ravishda muhofaza va g'amxo'rlikka, binobarin, tug'ilguncha va tug'ilgandan keyin ham munosib darajada huquqiy himoyaga muhtoj». Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada mustahkamlangan, ushbu xalqaro huquqiy qoida vatanimiz qonun ijodkorlari tomonidan mutanosib ravishda qabul qilinib, aytish mumkinki, 1994 yil Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlarni jinoiy javobgarlikka tortish va jazoni individuallashtirish va differentialsallashtirish xalqaro huquq asoslari sifatida yoritilgan.

Shu munosabat bilan ishonch bilan ta'kidlash mumkinki, 1994 yilda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini ishlab chiqishda, voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlarini belgilovchi maxsus normalarni bir bo'limda – JK Umumiy qismi oltinchi bo'limida jamlash to'g'risida mutlaq asoslangan qonunchilik qarori qabul qilindi. Mazkur bo'limga ikki bob (XV va XVI) kiritildi. Bu o'z navbatida, eng avvalo, voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligi va jazo masalalari bilan bog'liq barcha normalarni tizimlash, shuningdek, voyaga yetmaganlarning nisbatan fuqarovali, jismoniy va ma'naviy kamolga yetmaganligini hisobga olgan holda ularga javobgarlikni yuklash va jazoni qo'llashning yanada insonparvar prinsiplari va shartlarini umumlashtirish imkonini berdi.

«Jazo va uni tayinlash» deb nomlangan XV bob voyaga yetmaganlarga qo'llaniladigan jazo tizimi va turlarini (81–85-moddalar), voyaga yetmaganlarga jazo tayinlash tartiblarini (86-modda) tavsiflovchi umumiy qoidalarni ifodalaydi, «Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish» deb nomlangan XVI bob esa voyaga yetmaganlarni javobgarlikdan va jazodan ozod qilish shartlarini tarbiyaviy ta'sirning majburiy choralarini qo'llash va bu choralar tavsifi bilan (87–88-moddalar), jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish asoslarini (89-modda) va jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo turlariga almashtirishni (90-modda) ifodalaydi.

Jinoiy javobgarlik va jazoning u yoki bu masalasi (masalan, javobgarlikka tortish va jazo o'tash, sudlanganlikni o'tash va sudlanganlikni olib tashlash muddati o'tganligi va h.k.) ko'rsatilgan boblarda tartibga solinmagan bo'lsa, u holda, jinoyat sodir etgan barcha shaxslarga tegishli bo'lgan jinoiy javobgarlik va jazoning umumiy shartlarini nazarda tutuvchi JK Umumiy qismining tegishli qoidalariiga rioya qilish lozim. Bunda, JK 17-moddasi 5-qismiga binoan: «o'n sakkiz yoshta to'lgunga qadar jinoyat sodir etgan shaxslar umumiy qoidalarga muvofiq va ushbu Kodeksning Umumiy qismi oltinchi bo'limida nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan holda javobgarlikka tortiladilar». Shunday qilib, amaldagi JK Umumiy qismi oltinchi bo'limi odillik, insonparvarlik va ayb uchun javobgarlik prinsiplari rivojlanishining ma'lum jihatlarini o'zida mujassam qildi. Bu, qisman, voyaga yetmaganlarga qo'llaniladigan ayrim jazo turlarini, alohida tizimini va yengillashtirishni o'rnatishda namoyon bo'ladi (masalan, voyaga yetmaganning yoshiga nisbatan va sodir etgan qilmishi ijtimoiy xavflik darajasiga bog'liq ravishda differensiatsiyalash yo'li bilan ozodlikdan mahrum etish ko'rinishidagi jazo muddatlari kamaytirildi – 85-modda); 1994 yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksida birinchi bor voyaga yetmaganga jazo tayinlashda uning rivojlanish darjasasi, hayotiy va tarbiyaviy sharoitlari, sog'lig'ining holati hamda kattalarning va uning shaxsiga ta'sir etuvchi boshqa holatlarni hisobga olish to'g'risida ko'rsatildi (JK 86-moddasi 1-qismi); hukmlar yig'indisi bo'yicha voyaga yetmaganlarni ozodlikdan mahrum



etish muddatining mumkin bo‘lgan eng ko‘p chegarasi pasaytirildi (86-modda 2-, 3-, 4-qismlari); birinchi marta muqobillik asosida voyaga yetmagan jinoyatchilarga tarbiyaviy ta’sir etishning majburlov choralarini qo‘llash imkoniyati nazarda tutildi (87-modda 2, 3-qismi va 88-modda) hamda voyaga yetmaganlar ishi bo‘yicha idoralararo komissiyaning ko‘rib chiqishiga materiallarni berib, javobgarlikdan ozod qilish imkoniyatiga yo‘l qo‘yiladi (87-modda 1-qism); muddatidan ilgari ozod qilishning yengilroq asoslari reglament qilindi va jazoni yengilroq jazoga almashtirish (89-, 90-moddalar) huquqiy jihatdan tartibga solindi.

Ta’kidlash joizki, qonunda Umumiy qismning maxsus nazarda tutilgan oltinchi bo‘limidan tashqari, voyaga yetmaganlarni javobgarlikka tortish va jazo JK Umumiy qismining ayrim boshqa holatlarida ham yoritilgan. Masalan, JK 17-moddasi 4-qismi o‘n sakkiz yoshga yetmaganlar sodir etganlari uchun javobgarlikka tortilmaydigan qator jinoyatlarni aniqlash imkonini beradi (qisman, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta’minalashdan bo‘yin tovlaganligi uchun – JK 122-moddasi, ota-onani moddiy ta’minalashdan bo‘yin tovlaganligi uchun JK 123-moddasi, nikoh yoshi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun – 1251-moddasi, voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatga jalb qilganlik uchun JK 127-moddasi, fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risidagi qonun xujjalarni buzganlik uchun JK 144-moddasi va boshqalar). O‘z navbatida, JK 17-moddasi 2, 3-qismlari ayrim jinoyat turlariga nisbatan va ma’lum yoshga yetganligiga qarab (13, 14 va 16) voyaga yetmaganlar javobgarligi chegaralarini differensiyalaydi. Shunday qilib, JK holatlariga muvofiq, jinoiy javobgarlikka tortish uchun voyaga yetmagan shaxslar deb, faqat jinoyat sodir etilgunga qadar 13 yoshga to‘lgan, ammo 18 yoshga to‘lmagan shaxslar nazarda tutiladi. Yoshlarning konkret miqdori (13, 14, 15, 16, 17 dan 18 yoshgacha), qaysi yoshdaligi ahamiyatga ega emas, ammo jazoni individuallashtirish jarayonida sud tomonidan hisobga olinishi lozim, ya’ni yoshroqlariga yengilroq jazoni, yoshi kattaroqlariga og‘irroq jazoni qo‘llash lozim. Har qanday vaziyatda, jazo tayinlash vaqtida, sud voyaga yetmagan shaxslarga qo‘llaniladigan jazo turlari to‘g‘risidagi moddaning talablari bilan bog‘langan.

Shuni ham belgilab qo‘yamizki, shaxsning yoshini aniqlashda sud-tergov idoralari, shaxsning ma’lum yoshga yetganini aniqlashda «tug‘ilgan kuni emas, balki shu kun to‘g‘ri kelgan sutka o‘tganidan keyin, ya’ni keyingi sutkaning «0» soatidan boshlab» hisoblashlari lozim. Shaxsning yoshi tegishli hujjatlarga qarab emas (pasport, tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma va boshqalar), balki sud-tibbiy ekspertiza xulosasiga asosan aniqlangan vaziyatlarda, uning tug‘ilgan kuni qilib, ekspertlar tomonidan aytilgan yilning oxirgi kuni hisoblanadi, eng kam va eng ko‘p yosh miqdorlari bilan yoshni aniqlashda, bunday shaxsni sud ekspertlari taxmin qilgan eng kam yoshdan aniqlaydi.

JK 34-moddasi 6-qismida «shaxsni o‘ta xavfli retsidiivist deb topish to‘g‘risidagi masala hal qilinayotgan vaqtida uning o‘n sakkiz yoshga to‘lgunga qadar sodir etgan jinoyati uchun sudlanganligi, shuningdek, qonunda belgilangan tartibda sudlanganlik muhlatarining o‘tib ketganligi yoki olib tashlangan sudlanganligi inobatga olinmaydi». Shu bilan qonun chiqaruvchi voyaga yetmagan yoshda sodir etilgan jinoyatlar uchun o‘ziga xos «imtiyozlar» o‘rnatalganligini belgilagan. JK 51-moddasi 3-qismi ko‘rilayotgan toifadagi shaxslar uchun maxsus jazo tizimini belgilovchi JK 81-moddasi 1-qismi holatini tasdiqlash uchun ta’kidlaydiki: o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganlarga sodir etgan jinoyati uchun umrbod ozodlikdan mahrum etish ko‘rinishidagi jazo tayinlanishi mumkin emas. Shunga o‘xhash holat JK 50-moddasi 4-qismida uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etishni qo‘llashni taqiqlaydi. JK 55-moddasi 1-qismi «j» bandiga muvofiq, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishi jinoyatni yengillashtiruvchi holat deb topiladi. Axloq tuzatish ishlariga yoki ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan voyaga yetmaganlarga JK 72-moddasi 7-qismi qoidalari bo‘yicha shartli hukm qilish cheklavlarsiz, ya’ni hatto o‘ta xavfli jinoyat sodir etilganda ham yoki avval qasddan qilingan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish ko‘rinishidagi jazoga hukm qilishda ham qo‘llanishi mumkin. Ta’kidlab o‘tish zarurki, voyaga yetmagan jinoyatchilar uchun barcha yengilliklar ularning ijtimoiy, psixofiziologik va aqliy yetuk emasliklarini, jamiyatda o‘zini tutish yo‘llarini tanlash imkoniyati cheklanganligini hisobga olib belgilangan.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 2021 y
2. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. T., 2018
3. O’razaliev M.Q. Jinoyatchilik bilan aloqador bo‘lgan ijtimoiy salbiy hodisalarining sabablari va ularning oldini olish. Monografiya. – T.: TDYuU, 2017.
4. Волгарева И.В. Уголовная ответственность несовершеннолетних. – СПб., 2001.
5. www.iiv.uz



JAMIYAT HUQUQIY TARTIBOTI ASOSI SIFATIDA – KONSTITUTSIYA VA QONUN USTUVORLIGI

Yusupova Ug'iljan Baxtiyarovna

Xiva shahar 1-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 453 97 72

ub.yusupova_1scool@inbox.uz

Annotatsiya. Jamiyatda huquqiy tartibot asosi sifatida konstitutsiya va qonun ustuvorligi, o'quvchilarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shaklantirishdan iborat.

Kalit so'zlar: huquq, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, konstitutsiya, ta'lif, sub'ektiv huquq, o'quvchilarda bilim malaka ko'nikmani shaklantirish.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chinakam qonun ustuvor bo'lgan joydagina inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari ta'minlanadi, ijtimoiy barqarorlik va ijtimoiyadolat qaror topadi. Shu boisdan ham Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligi huquqiy davlat qurishning negizini tashkil etadi, desak mubolag'a qilgan bo'lmaymiz.

Xalqaro huquqning teng va to'la huquqli a'zosi bo'lgan O'zbekiston bugungi kunda huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida katta ishlarni amalga oshirmoqda. Ayni paytda, huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, u har bir fuqarodan faollik va mas'ullikni talab etadi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ayni paytda, jamiyatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning ko'lami ham anchagini ekanligini ta'kidlash zarur. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 12 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida bayon etilgan "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi"da ham bu masalaga katta e'tibor qaratilgan. Davlat rahbari ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberalallashtirishdan iboratdir.

Ta'kidlash joizki, qonun ustuvorligi keng mazmunli tushunchadir. Qonun ustuvorligi bu – barcha huquq sub'ektlari, ya'ni barcha davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, fuqarolar tomonidan qonunlarga aniq va og'ishmay rioya etilishidir.

Qonun ustuvorligi bu - har bir davlatda chiqariladigan turli normativ-huquqiy hujjatlar tizimida Konstitutsiya va qonunning ustuvorligi, ya'ni, barcha normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya va qonunga mos kelishi keraklidir. Barcha normativ - huquqiy hujjatlar Konstitutsiya va qonun asosida, uning doirasida va ularni bajarish yuzasidan qabul qilinishi kerak. Basharti, qonun osti hujjatlari Konstitutsiya va qonunga mosmasligi - ularning bekor qilinishiga olib keladi.

Ayni paytda, huquq hukmronligi bu davlat va uning mansabdar shaxslarining, davlat organlarining, fuqarolar va ularning turli tuzilmalarining faoliyati huquq bilan bog'liqligi, huquqga mos holda amalga oshirilishidir. Buning ma'nosi shuki, huquq normalari oddiy fuqaro uchun ham, mansabdar shaxs uchun ham birday majburiydir. Binobarin, "Chinakam demokratik jamiyatda Prezident ham, oddiy fuqaro ham qonunga rioya etadi". Zotan, huquq hukmronligi o'zida haqiqat, tafakkur, idrok, vijdon, halollik, erkinlik, birodarlik vaadolat kabi umuminsoniy-axloqiy qadriyatlarni ifodalab, ularning hayotga singishiga xizmat qilishi orqali, jamiyatda huquqiy tartibot ijtimoiyadolat o'rnatadi. Darhaqiqat, davlat rahbari ta'kidlaganidek, "Har qanday qonun, harakat sohasidan qat'i nazar, ishlab chiqilayotgan va muhokama etilayotgan paytda insonning asosiy, buzilmas huquqlariga qanchalik mos kelishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Ana shu tamoyillardan og'ishmay rioya etgan holdagina biz chin ma'nodagi huquqiy,adolatparvar davlat qurishga erisha olamiz.

Qonun ustuvorligi – qonuniylik huquqiy tartibotning asosi hisoblanadi. Huquqiy tartibot bu jamiyatdagi mavjud, erishilgan qonuniylik darajasiga bog'liq holda shakllanadigan tartiboddir. Shu munosabat bilan, jamiyatning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda huquqiy ta'lifning o'rniya roli hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash zarur. SHunga bog'liq holda, fikrimizcha, huquqiy



ta’limni bugungi kun voqeliklari, ya’ni, axborot asri, yuksak texnologiyalar davri xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, takomillashtirish zarur. Zotan, davlat rahbari ta’kidlaganidek, “bugungi siyosiy-huquqiy voqelikni hisobga olgan holda, mamlakatimizda huquqiy ta’lim va ma’rifatni, jamiyatda huquqiy bilimlar targ‘ibotini tubdan yaxshilashga yo‘naltirilgan maqsadli keng ko‘lamli chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish zarur. Ushbu dasturning amalgalari oshirilishi

aholining inson huquq va erkinliklariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishini, fuqarolarda qonunga itoatkorlik tuyg‘usining yanada ortishini ta’minlaydi”.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash zarurki, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – jamiyat huquqiy tartibotining asosi, uning huquqiy kafolati, barqarorlik zamini hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

- 1.Karimov I Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish-mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir.-T..-O’zbekiston 2011 yil
- 2.Karimov I A Yangi uy qurmay turib eskisini buzmang O’zbekiston 1993 yil
- 3.Karimov I A O’zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari// Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir O’zbekiston 1996 yil
- 4.Xalq so’zi gazetasi 2007 yil 1-yanvar

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИҚОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 1-ҚИСМ

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 31.12.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000